

**“Kwangjin Autosystems” MCHJ QK Komplayens xizmati tomonidan  
2025-yilning 1-yarim yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar hamda  
ularning vakillari murojaatlarini ko‘rib chiqish**

**T A H L I L I**

05.07.2025 yil

Andijon shahri

“Kwangjin Autosystems” MCHJ QK tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ularning vakillari murojaatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqish, qonun doirasida ijobiy hal qilish, aholining tizimdan roziligini oshirish alohida muhim vazifa sifatida belgilangan.

Shu jumladan, jamiyatning Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentiga kelib tushgan murojaatlar o‘z vaqtida, har tomonlama va to‘liq ko‘rib chiqilib, qonuniy hal etib kelinmoqda.

Jamiyatda murojaatlarni ko‘rib chiqishda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat tashkilotlarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Na‘munaviy nizom va boshqa qonun-hujjatlari talablariga rioya etilmoqda.

Sohada ishlarni samarali tashkil etish va xodimlarning bu boradagi mas‘uliyatini yana-da oshirish maqsadida, murojaatlarni ko‘rib chiqib, hal etishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi jamiyatning ichki hujjatlari, xususan, “O‘zavtosanoat” AJda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilingan.

Bundan tashqari, “Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to‘g‘risida “Kwangjin Autosystems” MCHJ QKga kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti qabul qilinib, jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlash tartibini belgilaydi.

Jamiyatda 2025 yilning 1-yarim yil davomida murojatlar kelmagan.

Shu bilan birga, jamiyat xodimlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni yana-da kuchaytirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rib borilmoqda.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, jamiyat xodimlari tomonidan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun talablari buzilish holatlari aniqlanmadi.

**Komplayens xizmati mutaxassisi**



**Axmedov B.**